

ABU MANSUR AL-MOTURIDIY TA'LIMOTI

Raxmatova Feruza Qudrat qizi

Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'rta Osiyo xalqlari diniy va dunyoviy ilmlar haqida, Abu Nasr Al - Moturudiy tomonidan yozilgan asarlar va ularning tahlili, yakka xudolik, Qur'onning sharhi, ilohiyot usuli, dialektika uslubi, mu'taziliylar, shariat masalalari haqida to'liq ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Qur'oni, islom dini, axloq, fiqh, odob, xalq, inson, jamiyat, davlat, hadis, aql, din, yaxshilik, yomonlik, asar, kitob, tahlil.

TEACHING OF ABU MANSUR AL-MOTURIDI

Rakhmatova Feruza Kudrat kizi

Student of Namangan State University

Annotation: In this article, about the religious and secular sciences of the peoples of Central Asia, the works written by Abu Nasr Al-Moturudi and their analysis, monotheism, the review of the Qur'an, theological method, dialectical method, Mu'tazilites, Sharia issues. detailed information is provided.

Keywords: Kur'an, Islamic religion, ethics, jurisprudence, manners, people, human, society, state, hadith, reason, religion, good, bad, work, book, analysis.

УЧЕНИЕ АБУ МАНСУР АЛЬ-МОТУРИДИ.

Рахматова Феруза Кудрат кызы

Студент Наманганского государственного университета

Аннотация: В данной статье о религиозных и светских науках народов Средней Азии, произведениях, написанных Абу Насром Аль-Мотуруди и их анализе, монотеизме, обзоре Корана, богословском методе, диалектическом методе, мутазилиды, вопросы шариата, представлена подробная информация.

Ключевые слова: Коран, исламская религия, этика, юриспруденция, нравы, народ, человек, общество, государство, хадис, разум, религия, добро, зло, работа, книга, анализ.

Islom dini va madaniyatining rivojida O'rta Osiyo xalqlari diniy va dunyoviy ilmlar ahlining salohiyati salmoqlidir. Ular tufayli hadisshunoslik, fiqh va kalom sohalari yuksak cho'qqilarga erishdi. Hadis sohasining rivojida Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (vaf. 870 y.), Muslim ibn al-Xajjoj (vaf. 874 y.), Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (vaf. 892 y) kabi muhaddislarning xizmati barakali bo'ldi. Abu Lays as-Samarqandiy (vaf. 983 y), shuningdek, Mahmud az-Zamaxshariy (1945-1044 y) va Faxr ul-islom Abu al-Hasan al-Pazdaviy (vaf.

1089 y), Alouddin as-Samarqandiy (vaf. taxm. 1145 y), Burhoniddin al-Margʻinoniy ar-Rishtoniy (vaf. 1197 y) kabilarsiz fiqh ilmining takomilini koʻz oldiga keltira olmaymiz.

Fiqh va hadisshunoslik bilan yonma-yon kalom ilmi shakllanib va rivojlanib bordi. “Ilm ul-kalom” oʻrta asrlar sharoitida diniy-falsafiy taʼlimot sifatida yuzaga kelib, unda diniy jamoa manfaatlar uchun oʻta muhim va eʼtiborli boʻlgan qonun-qoidalar, talablar aql mezoni asosida talqin etilar, keskin bahs-munozaralar olib borilar edi. Aslida faylasuflar qadimgi Yunonistonning mumtoz faylasuflari Suqrot, Aflotun, Arastu qarashlariga tayansalar, kalom ahli-mutakallimlar esa Qurʼoni karim va hadislardan ilhomlanar edilar. Lekin ularni bir-biriga yaqinlashtiradigan jihat-bu fikr-mulohazalar yuritishda taqlidchilikka emas, balki aqlga, mantiqqa murojaat etishlari edi. Abu al-Hasan al-Ashvari (vaf. 935 y) birinchilardan boʻlib sunniylikdagi molikiya va shofiʼiya mazhablari asosida islom aqidalarini kalom bilan uygʻunlashtirishga uringan boʻlsa, Abu Mansur al-Moturidiy esa bu masalani hanafiya mazhabi negizida talqin etishga asos yaratdi.

Abu Mansur al-Moturidiy yaratgan meros salmoqlidir. U yakka xudolik, Qurʼonning sharhi, ilohiyot usuli, dialektika uslubi, mutaziliylar, shariat masalalariga oid oʻndan ziyod asarlar yaratgan. Ularning ichida “Kitob at-tavhid” va “Kitob taʼvilot al-Qurʼon” allomani butun jahonga mashhur qildi. [1]

Taʼkidlash lozimki, ilohiyot, kalom masalalarini sharxlashda al-Moturidiy bagʻri keng, diniy jazavaga, betoqatlikka oʻrin qoldirmaydigan, oʻta extiyotkor mutafakkir - tadqiqotchi boʻlganligi doimo sezilib turadi. U oʻzgalar nuqtai nazarini sinchiklab tekshirib chiqishga doimo shay boʻlib, oʻziga maqbul keladigan diniy va dunyoviy qarashlarni qabul qilishni maʼqul koʻrgan. Moturidiyning tamoyili oʻziga xos boʻlib, u ilohiyot masalalarining yechimida shoshma-shosharlikni xush koʻrmas, oʻrtacha moʻtadil yoʻlga amal qilish zarurligini, ilohiyot masalalaridagi barcha jarayonlarni aql-zakovat bilan kuzatib borish kerak ekanligini unutmaslikni talab qilar edi. Doimo har xil daʼvolarda ilohiy vahiy va aql, Alloh va olam kabi oʻta mushkul masalalarda aql buyuk neʼmat ekanligiga tayangan fikr-mulohazalar yuritish doirasini qoʻllab-quvvatlab keldi. Ulrix Rudolfning taʼbiricha, uning qarashlari ilohiyot anʼanalari bilan ratsionalizm, yaʼni inson aqli daʼvolarining ustivorigi tamoyillarining oʻzaro mushtarakligiga asoslangan tafakkurning oʻziga xos koʻrinishidir.[2]

Shubhasizki, borliq masalasini hal etishda Allohning mavjud ekanligi, uning yakka-yu yagona ekanligini asoslab berish muhim sanaladi. Moturidiy Alloh mavjudligini isbotlashda belgi-alomatlardan kelib chiqish yoʻnalishi oʻta samarali vosita ekanligini juda yaxshi anglab etganligini koʻramiz. Uning komil ishonch bilan taʼkidlashicha, “biz yaratuvchini olamning har qarichidagi unga ishora qiluvchi belgilardan bilamiz. Ayni vaqtda Moturidiy oʻz fikrini toʻldirar ekan, toʻgʻrirogʻi yashirin shaklda unga ikkinchi tahminni ham qoʻshib qoʻyadi: insonga oʻz ixtiyorida boʻlgan vositalar yordamida Alloh tomonidan qoʻyilgan belgilarni ochish va anglash isteʼdodi ato etilgan”.

Moturidiy Alohning yagonaligi masalasiga alohida e'tibor qaratib, qator dalillarni keltiradi. Shulardan ba'zilarini ko'rsatib o'tish joizdir. Masalan, ba'zi odamlar nazarida u eng yuqori maqomda turadi. U hamma joyda buyuklik, baland martabalik, afzallik timsolidir. Naqllardan ma'lumki, Alloh o'zini barcha odamlarga turli xil vositalar orqali ayon qiladi. Ilohning birdan ortiqcha bo'lishi Allohning vahiyiga to'sqinlik qiladi. Aqlning dalillariga qaraganda, ikkita yoki undan ziyod iloh bo'lsa, ular bir-biriga mone'lik qilishi aniq. Umuman olganda, Abu Mansur Moturidiy olamning yaratilganligini isbotlash maqsadida o'n ettita dalil keltiradi. Ularga Allohning Qur'oni karimda o'zi ishonchli guvohlik berganligidan tashqari hech kimning abadiy yashayotganligiga da'vo qilmasligi; moddiy ashyolarning boshqa narsaga qaram ekanligi; tirik va notirik mavjudotlarning bir-biriga bog'liq ekanligi; hissiy idrok ob'ektining qarama-qarshi kayfiyatlarga egaligi; olamda ezgulik va yomonlikning bir vaqtning o'zida mavjudligi; yozilgan maktubning, bo'lingan narsaning kimsasiz ro'yobga chiqmasligi va hakovolar dalillar sifatida keltiriladi.

Moturidiy barcha mavjud narsa-ashyolarning o'z sababiga ega ekanligini rad etmaydi. Sababsiz oqibat bo'lmaganidek, oqibatsiz sababning bo'lishi ham aslo mumkin emas. Lekin sabab-oqibatlar zanjiri makon va zamonda abadiy tarzda davom etavermaydi. Ularning oxiri, poyoni bor. Alloh ularning yagona sababidir. Demak, Allohdan o'zga yaratuvchining bo'lishi mumkin emas. Boshqa barcha narsa-ashyolar uning tomonidan yaratilgan, lekin ularning o'zlari yaratish faoliyatidan mahrumdir.[3]

Al-Moturidiyda bilinadigan va biladigan, ob'yekt va sub'yekt tushunchalari bir-birdan ajratilmaydi, chunki ular yaratilgan jabhalardir. Tashqi dunyo, ya'ni koinot bir taqim hikmat, noziklik va dalillarga to'lda holda yaratilgan bo'lib, ular aqlni qo'llab, tushunarli maqomda anglash va bilish darajasida inson zotiga taqdim etilgan. Inson va uning aqli ham yaratilgan bu koinotning muhim tarkibiy parchasi, qismidir. Bunday holda inson istasa va istamasa-da, ashyoviy olam mavjuddir. U biron kimsaning xayoliy dunyosi emas. Idrok etilgan, sezib his qilingan, tushunilgan, ya'ni inson zehni qarshisida idrok etilgan, sezilgan, tushunilgan narsalar faqat zehndan mustaqil ravishda narsa-ashyolar sifatida mavjuddir.

Ashyolar olamining real mavjudligi hech qanday shubhaga o'rin qoldirmaydi. U Alloh tomonidan yaratilgan. Bundan tashqari, u behudaga yaratilmagan, chunki yaratilishdan aniq-ravshan maqsad ko'zda tutilgan. U ushbu ashyolar olami (ayon olam) orqali o'zining mazmun-mohiyatini, yaratuvchi aslida yagona Alloh ekanligini, u o'zining qudrat, qaram, rahm-shavqat sohibi ekanligidan barcha aql-farosatli bandalarga mudom xabar berib turadi. Ilmning qo'lga kiritilishi uchun insonning favqulotda faol bo'lishi va u o'zi ham koinotning bir qismi bo'lishi uchun olamni anglash va tushunishi lozimdir.

Abu Mansur al-Moturidiy ilohiyotida bilish nazariyasi muhim va etakchi mavzu darajasida ko'rib chiqilganligi ma'lum. Umuman olganda, ilm ikki xil ko'rinishda bo'lib, Allohning ilmi ("al-ilm billoh") va Allohni inson tomonidan bilish ("ilm Alloh") dan tubdan farqlanadi. Mutakallim Allohning to'la mustaqilligi hamda ilohiy fe'llarni aqliy idrok etishi mumkinligi

bilan bog'liq har ikki jihatni yetarli darajada e'tiborga olgan falsafiy kontseptsiyani ishlab chiqishga azmu qaror qilganligi yaqqol sezilib turadi. U Alloh mutlaq va shaksiz sifatidir. Alloh shunchaki amr yoki man etish bilan chegaralanib qolmasdan, balki aynan shu sifatlarning qaysinisi yaxshi-yu, qay biri esa yomonligini ham belgilab berishini nazarda tutadi. Ulardan turg'un va aql bilan anglab bo'ladigan muayyan me'yorlar shakllangan, chunki Alloh xikmat sohibi sifatida unga zid ravishda ish tutmaydi.

Moturidiy hikmatning mazmun-mohiyati haqida ortiqcha fikr-mulohaza yuritmaydi. Uning fikricha, hikmatning asosi uning o'zida namoyon bo'ladi. Uning izlari olamning hamma yerida uchraydi. Alloh o'z hukmlarini bandalardan sir tutmaydi, aksincha, ular hamma uchun tushunarli tarzda bayon etib berilgan. Buni olamning mutanosib boshqarilishida, axloqiy me'yorlarning aql me'yorlari talablariga to'la mos kelishida yaqqol ko'rish mumkin. Ilohiy hikmat o'zini shu qadar xilma - xil ko'rinishlarda namoyon etadiki, inson uning izlarini anglab, asl mohiyatiga eta oladi.

Ilohiy hikmat ikki xil yo'l bilan namoyon bo'ladi. Ulardan biri fazl bo'lsa, ikkinchisi esa adl yo'lidir. Allohning fazlini aniq miqdor ko'magida ifodalab berish imkoniyati yo'q, chunki Allohning fazli me'yorsiz bo'lib, u nihoyasi yo'q narsadir. Shuning uchun hech qachon ilohiy amalda eng ko'p fazl (al - afzal) o'z ifodasini topadi, deb bo'lmaydi. Adl esa, aksincha, ma'lum qoidaga rioya qiladi. Ammo bu qoida Alloh biron-bir ulkan narsa, masalan, ulkan samara (al - aslah) sodir qilayotganligini ko'zda tutmaydi. Alloh ko'proq shuning uchun ham odildirki, u har bir narsaga bu narsa qanday munosabatga loyiq bo'lsa, unga nisbatan huddi shunday munosabat bildiradi. Buning isboti uchun mutakallim ikkita ta'rifni keltiradi. Birinchisi va qisqarog'ida aytilishicha, hakim bo'lish to'g'ri yo'l tutishdir. Ikkinchisi esa deyarli qonundek jaranglaydi va unda aytiladiki, Alloh hakimdir, chunki U "har bir narsani o'zining xos joyiga qo'yadi". [4]

Tabiiyki, Moturidiy oldida yaratilgan ayon olami, uning qanday negizlardan tashkil topganligi masalasi ko'ndalang bo'lib turadi. Ulrix Rudolfning ta'kidlashicha, Moturidiyning ushbu masalaga bo'lgan munosabatiga nazar tashlasak, uning atom kategoriyasiga bepisandlik bilan qaraganligini ko'ramiz. "U atomizmni yoqtirmaydi, ammo tanqid ham qilmaydi, shunchaki uni o'z mulohazalari doirasidan chiqarib tashlaydi". U "Kitob at-tavhid"da muayyan moddiy jismni hosil qilish uchun nechta zarracha zarur ekanligi to'g'risida biron-bir fikr-mulohaza bildirmaydi. Lekin shunday bo'lishiga qaramasdan, u o'z asarida atomni belgilash uchun xizmat qilgan boshqa tushunchani, ya'ni jahar yoki javhari vohidni tilga oladi. Lekin unda bu so'z boshqacha ma'no kasb etadi. Ko'p hollarda bu so'z orqali shunchaki jism yoki jismoniy mohiyat nazarda tutiladi.

Aksariyat hollarda Moturidiy ilohiyotchiligidagi javhar va xilqa (tabiiy moyillik, tug'ma tabiat) istilohlari muayyan darajada bir-birini to'ldiruvchi va izohlovchi tushunchalar sifatida ishlatilib kelinadi. Ular dastlabki sifatlar tariqasida mutakallimning nazarda yaratilgan olamning jismoniy qiyofasida muhim o'rin tutgan. Ular barcha katta-kichik jismlarning

tarkibiy qismlari hisoblangan. Jismlar o'zaro bir-biri bilan aloqaga kirishganda yana tashqariga chiqqan. Masalan, jismlarning bir-biriga ta'siri oqibatida issiqlik paydo bo'ladi, sukunatdan esa o'z navbatida sovuqlik yuzaga keladi. Shuning bilan birga taboyi` o'z - o'zidan biron - bir hodisa yoki ashyoni yaratuvchi qandaydir kuch emasligini doimo nazarda tutmoq lozim. Ular aslida faqat o'z ta'biga rioya qilish va boshqa ta'blardan qochish mumkin, xolos. Shunday ekan, taboyi` mustaqil ravishda hech qanday moddiy jismlarga birlashmaydi, chunki bu ularning tabiiy faoliyatidan qisman bo'lsa-da, kechishni taqozo qiladi va shuning uchun ularning tabiatiga ziddir. Lekin shunga qaramasdan, jismlarning real mavjudligi qudratli Xoliqning mavjudligi to'g'risidagi hukmron tamoyilning o'rinli ekanligini isbotlaydi. U taboyi`ni yaratibgina qolmasdan, balki ularni doimo nazorat ham qilib turadi. U aynan shu yil bilan tartibli va barqaror olamning muhofazasi ta'minlaydi, degan fikr - mulohazada mutakallim qat'iy turadi.

Mutafakkirning fikricha, tab'lar haqiqatan ham moddiy olamning tarkibiy unsurlari sifatлари bo'lib xizmat qilar ekan, ularsiz biron-bir muayyan jismni tasavvur etish mumkin emas. Shunday ekan, ular Moturidiy ta'limotining borliq muammosi jabhasidan qanday o'rin egallaganini aniqlab olish lozimdir. Uningcha, Xoliq tomonidan yaratilgan barcha narsalar ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi. Bulardan biri aktsidentsiyalar – eng sodda unsurlar – elementlar sifatida gavdalansa, ikkinchisi esa ulardan tashkil topgan moddiy jismlardir.

Al-Moturidiyning gnoseologik ta'limoti naqadar e'tiborli bo'lishidan qat'iy nazar, uning asosiy maqsad-muddaosi har bir qadamda Allohning qudrati va bu olamning yaratilishini har tomonlama asoslab berishdan iboratdir, desak xato qilmaymiz. Bunda Moturidiy naql, hissiy dalil va aql kabi uchta usulga tayanadi. Naql olam yaratilganligi haqida qat'iy xabar beradi, hissiy idrok buni tasdiqlaydi, aql esa buni rad etib bo'lmaydigan xulosalar vositasida asoslab beradi. Oxir – pirovardida mazkur qoida shubhali va isbot talab, deb da'vo qiluvchi har qanday kishi tabiatan juda nodon yoki juda qaysar bo'lishi kerak, deganga yaqin xulosa yasash lozim bo'ladi. Abu Mansur al-Moturidiyga ko'ra, bilim (ilm) qadimgi ilm va hadis ilmidan iboratdir. Hadis ilmi hayvon bilimi va inson ilmidan tarkib topadi. Hayvon bilimi zaruriy va fitrat bilim shakllarida ifoda etsa, inson bilimi esa zaruriy va kasbiy bilim, kasbiy bilim o'z navbatida tarixiy istidlohiy bilim sifatida talqin etiladi. Qadimgi ilm diniy adabiyotlarda Allohning ilmi sifatida qo'llaniladi. Inson ilmi mutlaq bo'la olmaydi, u izoxiy bir bilimdir. Xadis ilmi – ilohiy bilimning tashqarisidagi bir shuurga tayangan bilimdir. Hayvonlarga xos bilim zaruriy (his-tuyg'ularga asoslangan bilim va fitrat bilim esa instinktga tayangan) ilmni bildiradi.

Inson bilimiga kelsak, u inson istak-xohishi, faoliyati va irodasidan qat'iy nazar yuzaga kelgan bilimdir. Abu Mansur al-Moturidiy besh sezgini aql uchun tushuncha (idrok) yo'li bo'la oladigan darajada yaratilgan ekanligini ilgari suradi. Sezgilar va xabar aqlga ko'makchi bo'lgani kabi, aql ham o'z navbatida his-tuyg'ular va xabarni nazorat qiluvchi, to'g'ri yoki yanglish ekanligini aniqlovchi tushuncha sifatida anglaniladi.

Sezgi a`zolari orqali barcha his qilinadigan narsa-ashyolar (ular ayon olam ko`rinishlari) ni, o`zida qarama-qarshi kayfiyat va mijozlarni birlashtirgan va tashqi ta`sirga berilgan va yaratuvchiga bo`ysungan narsalarni bilamiz. Bu dunyoning ayrim qismlari fazo va vaqt nuqtai nazaridan intiholidir. Bundan tashqari, bir butun narsalar ham abadiy bo`la olmaydi.

Bizga ma`lum bo`lgan narsa vositasida noma`lum narsani bilish murakkab vaziyatga olib keladi. Ulrix Rudolf “Kitob at-tavhid”ga murojaat qilib, ko`rinadigan narsa (misl) va o`xshash narsa (nazir) o`zaro munosabati masalasi birmuncha qaltis va nozik tus olishini uqtiradi. Moturidiy ular o`rtasidagi qiyosga asoslanishga umid bog`laydi. Uningcha, bu yanglishdir, chunki bu og`ir oqibatlar bilan bog`liq bo`lib, bu borada tabiiy va idrok etiladigan narsa tamoyil sifatida (asl) qabul qilinib, ko`rinmaydigan narsa uning oqibati (far) sifatida qabul qilinmoqda. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, inson tomonidan foniy va boqiy olamlarni talqin etishning o`zgacha usul va vositalari mavjud emas. Yo`q narsani esa kashf etish hech kimning qo`lidan kelmaydigan ishdir. Demak, Moturidiyning noma`lum narsani bizga ma`lum bo`lgan narsa orqali bilishga azmi qaror qilishdan boshqa imkoniyati yo`q. Bu esa, o`z navbatida, Arastu va uning tarafdorlari tanlagan yo`ldir.[5]

Bilishda xabarning o`rni ham beqiyosdir. Moturidiyga ko`ra, xabar yanglish yoki yolg`on bo`lishi ehtimoli bo`lgan so`zdir. Xabarlar ikki xildir. Birinchisi – bu Allohdan payg`ambarga kelgan vahiy. U xabar rasul deb ataladi. Vahiy – o`zida hech qanday shubhaga o`rin qoldirmaydigan bilish yo`li, vositasi sifatida qabul qilinmoqda. U to`g`ri bilim berishga qodirdir. Boshqacha qilib aytganda, vahiy Allohdan kelgan bilim, xabardir. Xabarning ikkinchisi kishilardan etib kelgan har xil xabarlardir.

Bundan tashqari, xabarning yana ikki ko`rinishda namoyon bo`lishini nazarda tutish lozim. Bu mutavotir va ahad xabarlardir. Mutavotir xabar payg`ambardan bevosita keltirilgan xabar bo`lsa, unga ortiqcha dalillarni ko`rsatishga hech qanday hojat qolmaydi, chunki u har qanday yolg`on-yashiq va shubhadan yiroq xabardir. Shuni ham alohida ta`kidlash joizki, boshqa hollarda mutavotir, ya`ni tildan-tilga bevosita etkaziladigan xabar “haqiqatan ham to`g`ri va qat`iy bir bilim bera olishi uchun sodda va ishonchli shaklda naql qilinishi etarli bo`lmasdan, balki uning asosida ko`rish va eshitish kabi tuyg`ularga tayangan bir xabar bo`lishi ham zarurdir”.

Mutavotir xabar darajasiga eta olmagan ehtimoliy, tahminiy xabar ahad xabar deb ataladi. Moturidiy ahad xabar qanchalik darajada yanglish bo`la olishi ehtimolidan qat`iy nazar, ba`zi sohalarda uni qabul qilish lozim ekanligini uqtiradi. Qiyos va ijti hodning o`zaro uyg`unlashuvi amaliy bilimda o`z o`rniga ega bo`lishi zarur. e`tiqodga doir bilimlarda esa masalaning nozikligidan kelib chiqib, kitob va mutavotir xabarning bo`lishi shart sanaladi. Bundan ko`rinadiki, xabarning bilim manbai bo`la olishi masalasi munozaralidir. Lekin biz bunga asoslanib, xabarni inkor eta olmaymiz, deb uqtiradi mutakallim. Chunki har bir manba o`z mohiyatiga ko`ra, bir-biridan farq qiladigan bilim beradi. Bilish manbalaridan biri ikkinchisining garovi bo`la olmaydi va uning joyini bosa olmaydi.

Abu Mansur al-Moturidiy aql va nazarga alohida e'tibor bilan qaraydi. Aql tahlil qiladigan va birlashtiradigan, umumlashtiradigan qobiliyat sifatida tushuniladi. Bunda aql faoliyatiga berilgan ta'rif Arastudan olinganligi yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Aql ayirish zarur bo'lgan narsalarni bir-biridan ayirish, birlashishi zarur bo'lgan narsalarni bir - biri bilan birlashtirish ma'nosida talqin etiladi. Shunday jarayon aslida tafakkur va nazar vositasida amalga oshiriladi. Mutakallim ko'p hollarda sof aqlni emas, balki nazarni, "ilm-n-nazar"ni, ya'ni nazariy bilimni bilish asosi deb e'tirof etadi. Nazar - bu "aqlni qo'llash va undan foydalanish" ma'nosida qo'llaniladi.

Aqlga bu darajada ishonch hosil qilishning boisi shundaki, bilim da'vo qiladigan jabhalar o'n sakkiz ming olamni tashkil etadi. Al-Moturidiyning qarashlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, bilish manbalari xilma-xil bo'lib, ularning hech biri yagona va ishonchli asos bo'la olmaydi va bunday muhim ma'suliyatni o'z zimmasiga yuklay olmaydi. Sezgilarga taalluqli bo'lmagan g'ayb olami asosida muayyan fikrga kelish uchun esa istidlol (dunyoviy) bilimga (umumiy tarzda dalil keltirish, fikr yuritish, biron - bir dalilga tayangan narsadan xulosa chiqarish, biron - bir jumboqni dalil asosida anglab olishga ko'maklashishga) yoki payg'ambarning xabarlariga ehtiyoj seziladi.

Shunday qilib, jonli mushohada va aqliy bilish, istedodli bilim va tahminiy bilim, ilohiy va dunyoviy bilim nisbati yanada murakkablashib, go'yoki boshi berk ko'chaga kirib qolgandek tuyuladi va oqibatda ilmdan ko'ra bilimsizlikni ma'qul ko'rish maqsadga muvofiqdek ko'riladi. Lekin aslida mutakallimning o'zi boshqacha fikrdadir. Uningcha, imon-e'tiqod kufrdan farqlanganidek, ilm ham jaholatdan tubdan farq qiladi. Imon uchun mavzu deb hisoblangan narsalar bilish uchun ham muhim mavzu bo'la oladi. Demak, ilmning imon tasdig'i ekanligini e'tirof etgan kishi yana o'zi ta'kidlagan narsaga qarshi chiqsa, u ishongan narsasiga ham qarshi chiqqan, uning aynan o'shanday emasligiga ishonishning o'zginasidir. Bundan tashqari, butun koinotni yaratgan Alloh, mutloq haqiqat va aql sohibi sanalmish Tangri taolo uni ilm va aql nuridan holi bir tarzda yaratishi mutakallim mantig'iga mutlaqo ziddir. Bordiki bunday bo'lganda. Uning tomonidan yaratilgan mo'jizalarni, uning husni mutlaq, mutlaq haqiqat ekanligini tushunishga, fahmlashga inson qodir bo'lmas edi. Qolaversa, u mohiyat nuqtai nazaridan har qanday hayvondan tubdan farq qilmagan bo'lar edi. Lekin aql Alloh tomonidan inson zotiga berilgan imkoniyat xolos. Undan samarali foydalanish, bu imkoniyatning qadriga etish pirovard natijada har bir insonning faolligi, iqtidori va jihatiga bog'liqdir. Aksincha, u kayfiyat va ta'b jihatidan undan farq qiladigan tilsiz va aqlsiz mahluqlar darajasiga tushib qolishi hech gap emas.

Al-Moturidiyning aqlga bo'lgan munosabatiga nazar tashlar ekanmiz, unda o'ziga xos ikki jihatni ilg'ab olishimiz qiyin emas. Birinchidan, mutakallim eski mo'taziliylar an'analarini tark etmaydi, ular andozalariga tayangan holda fikr-mulohazalar yuritadi. Ikkinchidan esa, Moturidiy ular erishgan muayyan yutuqlar bilangina qanoat hosil qilmasdan, yangidan-yangi masalalarga murojaat qiladi, samarali dalillar izlashni kanda qilmaydi. Bu hol Moturidiy bilish

ta'limotini Ash'ariy qarashlaridan keskin farqlaydi, chunki "Ash'ariy inson tafakkurining bu qadar mustaqilligini tan olmas va aqlni qat'iy ravishda xabarlarining talabalariga tobe' qilib qo'yar edi".

Lekin shunga qaramasdan, Moturidiyning ta'kidlashicha, aqlning qator afzalliklari bilan birga unga xos kamchiligi sezilib turadi. U fikr yuritish beqiyos yo'l-yo'riqlari va samarali imkoniyatlarni yaratib berish bilan birga e'tiqod uchun nohush sanalgan bahs-munozara eshigini ham keng ochib beradi. Bu eshik tirqishidan kutilmagan bir vaziyatda shubha ham kirib keladi. Ana o'shanda inson Allohning dalillariga bo'yin egadi va uning fikri bandasi uchun ahamiyatli holga keladi va muhim ahamiyat kasb eta boshdaydi.

Demak, Moturidiyga ko'ra, biz narsa-ashyolarning tashqi qiyofasini bila olamiz. Uning ichki mohiyati va ba'zi nozik jihatlarini bizning mushohada quvvatimiz aks ettira olishga ojizlik qiladi. Boshqacharoq qilib aytganda, bizning bilimlarimiz atigi bizga yaqqol ko'rinib turgan olam doirasida qoladi. Moturidiyning bu mulohazalarini, ashyolarning nozik tomonlarini, mohiyat va haqiqatning o'zini o'rganish uchun Allohga davomli duo qilmoqning sababi aynan shudir, demoq lozim bo'ladi.

Olam va Allohni bilishda istidloliy (dunyoviy) bilishning ahamiyati Moturidiy uchun samarali ko'rinadi. Ammo u qanday dalilni pesh qilmasin, uning faoliyati bilimlarimizga azaldan muhrlangan nisbiylik tamg'asini chetlab o'ta olmaydi. SHunday ekan, biz pirovard oqibatda Allohni emas, faqat Alloh haqida bilamiz, deydi Moturidiy o'zining "Kitob ut-tavhid" asarida. Abu Mansur al-Moturidiy aql, ilm va islomning o'zaro mushtarakligini ko'rsatib berishga azmi qaror qilganligi shubhasizdir. Bu borada F.Rouzentelning "Ilohiyotchilar bu ikki atamalarni tenglashtirishga qarshi shubhalar bildirgan bo'lmasinlar, "ilm-bu islom", – degan fikri birmuncha munozarali ko'rinadi. Aynan shu masalani Moturidiyning nuqtai nazaridan qarasak, o'zga manzaraning guvohi bo'lamiz. Unga ko'ra, imon bilim bo'lmasdan, balki qalbiy bir tasdiqdir. Kufrning lug'aviy ma'nosi takzibdir. Lekin bilimsizlik, jaholat takzib emas. Demak, jaholat imonning zidi bo'la olmaydi, chunki u bilimning zididir. Aslida imon na ne'mat, na raxmat va na bilimdir. U bilimga tayangan tasdiqdir, xolos.

Mutakallimning qarashlarida ilm, hikmat va ahloq-odob faoliyat bilan hamnafasdir. Bilish imkoniyatlariga ega bo'lgan holda uqmaydigan va bilmaydigan kishi ma'zur tutilmaydi va u "safih" deb nomlanadi. Safih xikmatning zididir. U bilimdan kelib chiqib ish ko'rmaslikni, harakat qilmaslikni ifodalaydi. Hikmat esa ilm va faoliyat o'zaro birligini bilidiradi. Moturidiyga ko'ra, hikmat sohibi bo'lgan kishi ham bu dunyoda, ham u dunyoda haloslikka erishadi. Hikmat ilmning har ikki dunyoda ham xayratli ne'mat ekanligini uqtiradi. Inson tana a'zolarining ko'zga tabiiy bo'lib ko'ringanidek, faoliyat va ilm ham tabiiydir. Bilib qilingan oz ish bilmasdan qilingan ko'p ishdan foydalidir.

Mutakallim foydalanilmagan, insonning sa'y-harakatiga ta'sir etmagan va uning yo'nalishini ko'rsatib bera olmagan ilmni keraksiz deb biladi. Unga ko'ra, ilmiga amal qilmagan va uning tayanib harakat qilmagan kishi o'zida ilm bo'lishiga qaramasdan, johil inson sanaladi.

Muayyan faoliyatning insonga savob qozontira olish uchun uning aqlga monand ko'rilgan faoliyat bo'lishi lozim. Aqlga mos kelmaydigan har qanday faoliyat savob qazontirmaydi. Jannat ahlining fe'llari aqlga monand fe'llardir. Jahannam ahli fe'llari esa aqlan yomon fe'llardir. Aql dalillari qamroviga ko'ra, bironta narsaning yaxshi yoki yomon bo'lishi aql tomonidan tayin etilmaydi. Mutakallimning ta'kidlashicha, "aql yaxshilik va yomonlik, go'zallik va chirkinlik tushunchalari va tadbir iboralarida asos qilib olingan mezondir. Inson o'zligini, boshqa hayvonlardan aql-farosat jihatdan ustun ekanligini saqlagan holda, aql soyasi va panohida yaxshilikni yomonlikdan, foydali narsani zararli narsadan, iflosni ozodalikdan. Go'zallikni chirkinlikdan, mo'jizakor hikmatni johillik va notavonlikdan ajratib oladi".

Mutakallimning alohida ta'kidlashicha, sog'lom din ilm va dalillarga tayangan dindir. Mas'uliyatli va har bir yaxshi va yomon sa'y-harakati uchun u dunyoda kechirilmasligini bilgan inson yomonlikdan uzoqlashadi hamda bu dunyoda ham, u dunyoda ham baxt - saodatga erishadi.

Xullas, shuni aytish lozimki, Abu Mansur al-Moturidiy kalom, ilohiyot sohasiga o'ziga xos ulug'vor vazminlik olib kirdi, diniy betoqatlik ruhiyatiga diniy donishmandlikni qarama-qarshi qo'ydi, inson va olamni Allohga yaqinlashtirdi, diniy jazava, fisqu-fasotlarga aqliy yetuklikni qarshi qo'ya olgan buyuk mutafakkir ekanligiga u yozgan asarlar yetarli asos bo'la oladi.

Adabiyotlar ro'yhati

- 1.Зоҳидий А. Мотуридий ва калом таълимоти.... – Б. 12-13.
- 2.Рудольф У. Ал-Мотуридий ва Самарқанд суннийлик илоҳиёти...– Б. 25-27.
- 3.Абдуллаев А. Абу Мансур Мотуридий ва исломий эътиқод....– Б.18.
- 4.Исломий Ҳ. Абу Мансур ал-Мотуридий. – Т.: Ғ.Ғулом нашриёти, 2000. – Б. 22.
- 5.Мунавваров З., Аббосова А. Абу Мансур ал-Мотуридий // Шарқ маъшали. – Тошкент, – 2000. –№1-2. – Б. 5.